O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

№ 5 (16411)
2021-YIL
3-MART,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

# BILIM VA SALOHIYAT SINOVI










***Namangan viloyati Davlatobod tumanida qad rostlagan muhtasham "Yoshlar kutubxonasi"da viloyatning ko'zga ko'ringan kitobsevar yoshlari jam bo'ldi. Kitob o'qib, ilm olishga chanqoq yoshlar "Yosh kitobxon" respublika tanlovining viloyat bosqichida o'zlarini sinab ko'rdi.***

Qizg'in bahs-munozaralarga boy tarzda o'tgan bellashuvda ishtirokchilar 10-14, 15-19, 20-30 yosh toifasida uch shart bo'yicha o'z bilimini sinovdan o'tkazdi.

Tanlovda 10-14 yosh toifasida g'oliblik Pop tumani 16-IDUMI o'quvchisi Ziyoda Olimjonovaga nasib etdi. 15-19 yosh toifasida esa zukkoligi bilan barcha savollarga a'lo javob bergan mingbuloqlik Doston Ahmadov respublika yo'llanmasini qo'lga kiritdi. 20-30 yoshlilar orasida Namangan shahridan ishtirok etgan Orifjon Olimjonov birinchi o'rinni qo'lga kiritib, keyingi bosqichga yo'l oldi.

Xuddi shunday bellashuv Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida ham bo'lib o'tdi. Unda hududiy bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan jami 48 nafar kitobxon ishtirok etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 10-14 yosh toifasi bo'yicha Nukus shahrida joylashgan I.Yusupov nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati o'quvchisi Aynura Alimjanova, 15-19 yosh toifasida Bo'zatov tumanidagi 1-akademik litsey o'quvchisi Biybayim Joldasbayeva hamda 20-30 yosh toifasida Nukus tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Asqar Eshmurodov yuksak salohiyatini namoyish etib, tanlovning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Tanlov g'olib va ishtirokchilari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tayyorlangan diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**O'zA**

## O'ZBEKISTON KORONAVIRUSGA QARSHI ILK VAKSINANI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZDI



***Zhifei Longcom Biopharmaceutical Co. Ltd kompaniyasi koronavirusga qarshi vaksinani yaratishda O'zbekistonning hissasi va sa'y-harakatlarini inobatga olib, ZF 2001 vaksinani birga yaratgan hammuallif mamlakat sifatida belgiladi.***

Ushbu yangi vaksinani ZF-UZ-VAC 2001 nomi bilan birgalikda ishlab chiqarish va foydalanilishga kelishilgani bildirildi.

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi xabariga ko'ra, 2021-yil 1-mart kuni ZF-UZ-VAC 2001 koronavirusning yangi tipiga qarshi rekombinant (CHO cell) vaksina tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ma'lumki, dori-darmonlar qatorida vaksinalar ham tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin ruxsat etiladi.

**Sog'liqni saqlash vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi**




3

2021-YIL — YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI

# INTILUVCHAN YOSHLAR KO'P

***O'zbekiston — yoshlar mamlakati. Aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Ularning bandligini ta'minlash, intilishlarini qo'llab-quvvatlash davlatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lishi lozim. Xo'sh, bugun yaratilayotgan imkoniyatlar shunga mosmi?***



## ularni QO'LLAB-QUVVATLOVCHILAR-CHI?

Yoshlarning g'oyalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida davlatimiz tomonidan imtiyozli kreditlar, grantlar ajratilmoqda. Bu kichik sarmoyalar yoshlarni katta orzular sari yetaklamoqda. Yoshlarning iqtisodiyotimiz barqarorligi, el-yurtimiz farovonligi yo'lidagi intilishlariga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Yoshlar bugun hal qiluvchi kuch bo'lib, hayotga shunday dadil qadamlar ila kirib kelyaptiki, bu yosh tadbirkorlar faoliyatida ko'zga tashlanmoqda.

Suhrob Eshmonov intellektual salohiyatli, faol va intiluvchan yosh tadbirkorlardan biri. U dastlab tadbirkorlik faoliyatini ko'p qavatli uylarning yerto'lasida boshlagan. O'zi kabi yoshlarni ish bilan ta'minlab, yosh tadbirkorlar safini kengaytirgan.

— Imkoniyatlardan foydalangan holda kichik bo'lsa ham o'z tadbirkorligimni yo'lga qo'ydim, — deydi yosh tadbirkor Suhrob Eshmonov. — Ayni paytda 20 nafar yosh ishlamoqda, yaqin kunlar ichida faoliyatimizni kengaytirib, yana 60 nafar yoshni ish bilan ta'minlamoqchiman. Dastlab har bir ishchiga tikish-bichishni o'rgatib, faoliyat bilan tanishtiramiz.

Asosan, bolalar kiyimlarini tikib, ichki bozorimizga o'z mahsulotimiz bilan kirib boryapmiz. Kelajakda faoliyatimni yanada kengaytirib, jahon bozoriga ham chiqishni maqsad qilganman.

Yoshlar bandligi — jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy kafolat hisoblanadi. Aniq reja va qat'iy maqsadning mavjudligi yoshlarning eng muhim fazilati bo'lsa, bilim va intiluvchanlik qo'yilgan maqsadni amalga oshiruvchi kuchdir. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyati yoshlarning tahlil, hisob-kitob borasidagi noyob iqtidorini talab etishi bilan murakkabdir.

Tadbirkorlik faoliyati tufayli shaxsning imkoniyatlari ro'yobga chiqadi, kishi millionlab odamlar orasida o'z o'rnini topadi, ko'plab insonlar doimiy daromad manbayiga ega bo'ladi. Albatta, ish boshlagandan so'ng darhol daromad topib, boyib ketish oson emas. Buning uchun yillab mijozlar uchun kurashish, ularning ishonchini misqollab yig'ish kerak. Bu mushkul vazifa. Shunday bo'lsa-da, qiyinchiliklarga qaramasdan o'z oldiga qo'ygan maqsadi tomon ildamlayotgan yoshlarning safi kundan kunga kengayayotgani quvonarli hol.

Go'zallik barchani birdek ilhomlantirib, yaxshi kayfiyat hadya etadi. Ammo oddiy chiqindilardan go'zallik yarata oladigan, qo'li gul hunarmandlarning borligi kishini hayratlantiradi. Muzaffar ana shunday go'zallik yaratuvchi tadbirkor. Chiqindidan san'at asari darajasidagi ishlarni yaratish har kimning ham qo'lidan kelmaydi.

— Bolaligimdan narsalar yasashga qiziqaman, — deydi Muzaffar Yusupov. — Bu insonda erkin fikrlashni yuzaga keltiradi. Asosan, taxta va mato qoldiqlari bilan ishlayman. Faoliyatimga bolalar ham qiziqish bildirgani bois, bugungi kunda bolalarga ham o'rgatyapman. Biror narsa yaratgan inson ruhan yengil bo'ladi, yanada kuchliroq ishtiyoq paydo bo'ladi. Kelajakda faoliyatimni tadbirkorlik bilan davom ettirmoqchiman. Shu orqali shogirdlarimni ish bilan ta'minlayman.

Har bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun o'ziga yarasha qiyinchilik va muammolarni yengib o'tish lozim. Bunday qiyinchiliklar har bir qahramonimizni chetlab o'tmagan, albatta. Muhimi, ular o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari intilmoqda.

Har bir yosh noyob iste'dodga ega. Ularni ro'yobga chiqarish kerak, xolos. Bu o'rinda mutasaddi tashkilotlar ko'magi juda muhim.

— 2021-yilda yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq yo'l xaritasini tuzib olganmiz, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Yashnobod tumani bo'limi rahbari Farrux Mahmudxo'jayev. — Asosan, yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga yo'naltirish, tadbirkorlikni boshlamoqchi bo'lganlarga yordam berishni ko'zda tutganmiz. Buning uchun ularga imtiyozli kreditlar olishda, biznez rejalar tuzishda ko'maklashamiz.

Ba'zan qo'limizdan kelganini qilish shunchaki yetarli bo'lmaydi. Bizdan nima talab qilinayotgan bo'lsa, shuni qilishimiz lozim. Haqiqatan ham, bugun "El qatori", degan gap uchun ish qiladigan zamon emas. Yoshlardan talab etilayotgani faqat o'qish, bilim va tajribasini oshirish. Zamon bilan hamnafas bo'lib, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish pallasi. Buning uchun mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalana olsak bas.

Yoshlarning tadbirkorlik borasidagi bilimini boyitish, ularda ishbilarmonlik malakasi va ko'nikmasini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Yoshlarimiz bu imtiyozlardan oqilona foydalangan holda o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ymoqda. Bu mamlakatimizda uchinchi renessans davri poydevorini qurishda muhim omil bo'lsa, ajab emas.

**Kamola SOBITJONOVA**

# YOSH JURNALISTNING UCH XISLATI

TAQDIMOT

***Poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida yosh jurnalist-qalamkashlarning sara maqolalaridan tashkil topgan "Umid yog'dusi" to'plami taqdimoti bo'lib o'tdi.***

Kitobdan yosh qalamkashlarning 2020-yil davomida mamlakatimiz matbuoti sahifalarida e'lon qilingan, koronavirus pandemiyasi, o'tgan yili kuzatilgan "Sardoba" fojiasi, odamlar, oddiy xalq hayoti haqidagi o'tkir tanqidiy-tahliliy, ilmiy, badiiy-publitsistik maqolalari joy olgan.

— To'plamga kiritilgan har bir maqolada muallifning yarq etgan fikri, nuqtayi nazari sezilib turadi, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist




Halim Saidov. — Bugun yosh jurnalistlar uchun eng muhim narsa — jasorat, bilim va mahorat! Shu uch xislat mujassam bo'lgan bu qalamkashlar kelajakda biz — katta avlod jurnalistlari qila olmagan ishlarni bajarishiga ishonaman.

To'plam O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasining tashabbusi bilan Respublika tovar-xom ashyo birjasi homiyligida chop etildi.

**Hafiza ABDULLAYEVA**

QALDIRG'OCH

***Shoirlar millatning dard-u tashvishi, quvonchi, istaklari va hatto, kelgusi taqdiridan bashorat qiladi. Shu bois, yosh ijodkorlarning bitiklari kelajakning yurak urishi deya qabul qilinadi. Bugun milliy adabiyotimizga shunday katta shoir bo'lishga arzigulik, iste'dod egalari kirib kelyapti. Bu nafaqat adabiyot, balki mamlakat kelajagi haqida yorug' tuyg'ularni jonlantiradi.***

# "BIRINCHI KITOBIM" MILLAT OVOZI



Chin iste'dod egalari doim millatni uyg'otib, ortidan ergashtira oladigan shaxslardir. Kuni kecha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida 15 nafar yosh ijodkorning chop etilgan kitoblari taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu kitoblar 2018-yilda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirildi. Loyiha doirasida har bir muallifning kitobi 2020-yilda "Adabiyot" nashriyotida 10 ming nusxadan chop etildi.

Mazkur kitoblarni qo'lga olar ekansiz, ular janr va mavzularining xilma-xilligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi. Xususan, Alisher Aliqulovning she'rlarida sayqallangan go'zallikni ko'rsangiz, Feruz Ne'matullayevning she'rlaridagi yangicha nigoh, botin ifodasi, yoniq ovozi o'quvchini befarq qoldirmaydi. Xonzodabegim Jamolovaning she'rlarini o'qir ekansiz, yangi ruh, yangi kayfiyatda o'z so'zini aytishga, o'ziga loyiq yo'l topishga intilayotgan ijodkor bilan suhbatlashasiz. Uning ota-ona, Vatan, do'stlik, mehr-muhabbat, vafo-sadoqat haqidagi bitiklari o'quvchini mulohazaga chorlaydi. Yana bir yosh ijodkor Nurmuhammad Azizning she'rlarida tabiat mo'jizalariga, hayot hodisalariga teran nigoh bilan qarashi va buni misralarda mohir chizgilarda berishiga guvoh bo'lasiz. Shoir Islom Qo'chqorovning ijodida yoshlikning jo'shqin satrlariga duch kelsangiz, Suhrob Ziyoning she'rlaridagi o'zlikni anglashga urinish, yoshlikning sarkash tug'yonlari o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Umid qilamizki, ilk kitobini qo'lga olgan yoshlar kelgusida dunyo adabiyoti bilan bo'ylasha oladigan asarlar muallifiga aylanadi.

**Muxbirimiz**



## ABDUQODIR TOSHQULOV:

# “YURTIMIZ OLIY TA’LIM DARGOHLARIDA JAHONGA TENG ILG‘OR TAJRIBALAR BOR”

**O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri Abduqodir Toshqulov O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyati bilan bevosita tanishdi.**

Vazirning “... ta’lim mazmuniga islomni olib kirish uning tubdan isloh bo‘lishida katta ahamiyatga egaligi” xususidagi fikrlari ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy ma’noda keng muhokama etilganidan xabaringiz bor. Shu ma’noda vazir birinchilardan bo‘lib Akademiya faoliyati bilan tanishgani bejiz emas.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Qur’on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo‘lgan sohalar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, uzluksiz ta’limning yaxlit tizimini tashkil etish, ilmiy merosni chuqur o‘rganish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta’lim muassasasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchisi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori Rustam Qosimov hamrohligida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazir Abduqodir Toshqulovning Akademiya faoliyati bilan tanishuvi kunning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelgani bois, talabalarning to‘garak va qo‘shimcha mashg‘ulotlarini kuzatishdi.

Akademiya kutubxonasi va “BOOK-CAFE”da asosiy darslardan so‘ng noyob adabiyotlardan foydalanib, qo‘shimcha bilim olayotgan kitobxonlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

– Kutubxonamiz yangi kitob va nodir qo‘lyozmalar bilan boyib bormoqda. Shu bois, bu maskanga har kuni shoshib boraman, – deydi vazir bilan suhbatda islomshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi Anvar Mustafoyev. – Chunki Akademiyamizda an’anaga aylangan tashabbusga ko‘ra, ustoz-muallimlarimiz ham o‘zi o‘qigan kitoblarini kutubxona fondiga sovg‘a qilishadi. Ustozlarimizni ta’sirlantirgan kitoblar esa bizni ham yangi-yangi bilimlarga oshno qilishi shubhasiz.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Akademiya huzuridagi boshlang‘ich tashkiloti xonasi va u yerda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rayotgan iste’dodli yoshlar bilan uchrashuv ham mazmunli o‘tdi. Oliy ta’lim dargohida tashkil etilgan “Dutorchi qizlar” guruhi “Farg‘ona tong otguncha” kuyi va qo‘shig‘ini mahorat bilan ijro etdi. Ayniqsa, “Navro‘z” umumxalq bayramida milliy an’analarimizni namoyish etishga hozirlik ko‘rayotgan talaba Jaloliddin Ergashevning chanqovuz sozida ijro etgan kuyi olqishga sazovor bo‘ldi.

Shundan so‘ng vazir Akademiya hovlisi, mini futbol maydoni, o‘quv xonalari, sport zali hamda talabalar turar joylarini ko‘zdan kechirib, ularning faoliyatini yanada samarali va qulay tashkil etish, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bunyodkorlik ishlari xususida o‘z fikr-mulohazalari hamda tavsiyalari bilan o‘rtoqlashdi.

– Akademiyamizda dono xalqimizning “Ustoz otangdan ulug‘” hikmatiga hamohang ravishda “Shogird – farzanddek aziz” naqli shakllangan, – dedi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori Rustam Qosimov. – Mehrdan mehr yaraladi, ildiz otib yuksaladi. Shu bois, shogirdiga mehr va bilim ulashgan ustozning qadri ham baland bo‘lib boraveradi. Shogirdning ota-onasi bilan ham yaqin do‘st-birodar bo‘lgan ustozning ularga farzandi haqidagi har bir xushxabari ham talabada yangidan-yangi intilishga rag‘bat bag‘ishlashiga ishonaman.

Muassasada talabalar bilan individual yondashuv asosida ish olib borilayotgani vazirning e’tiborini tortdi. Zero, bugungi kunda talabalar turar joyidan boshqa manzilda yashab, o‘qiyotgan har bir talaba diqqat-e’tiborda. Fakultet dekanlari talabalar yashayotgan xonadonlarga borib, ularning yashash sharoiti bilan tanishuv asnosida ehtiyoj va muammolarini o‘rganayotgani, viloyatlardagi ota-onalar bilan muntazam muloqotda bo‘layotgani diqqatga molik.

– Ona Vatanimiz qadim tamaddun beshiklaridan bo‘lgani jahonga ma’lum, – dedi uchrashuv yakunida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri Abduqodir Toshqulov. – Buni yurtimizda farzand ta’lim-tarbiyasi, ularni barkamol voyaga yetkazish va albatta, yetuk kadr, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishda jahonga teng tajribalar borligida ham o‘z isbotini topadi. Ularni tizimli o‘rganib, ommalashtirishimiz kerak, xolos. Faqat xorijiy tajribani o‘rganishimiz kerak, deguvchilarni esa shu bois ko‘p ham oqlayvermayman.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining Akademiya faoliyati bilan tanishuvi ko‘plab yangi fikrlarga asos bo‘ldi.

**Bahodir JOVLIYEV**

ВЫБОРЫ-2021

# ГОЛОСОВАНИЕ ЗА РУБЕЖОМ:
## что нового в избирательном законодательстве?



***Мы попросили рассказать об этом заместителя директора учебного центра по избирательному законодательству и современным технологиям Центральной избирательной комиссии Республики Узбекистан Х.А. ПАЛУАНИЯЗОВА.***



– Согласно Закону Республики Узбекистан от 8 февраля 2021 года «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием избирательного законодательства» внесены важные изменения в Избирательный кодекс, – говорит Халмухаммед Аитжанович. – Они затронули такую актуальную проблему, как обеспечение избирательного права наших граждан за рубежом.

На парламентских выборах 2019 года в дипломатических представительствах и консульских учреждениях Республики Узбекистан за рубежом было создано более 50 избирательных участков. Проводились агитационные мероприятия (в частности, встречи с кандидатами в депутаты), в которых были активно задействованы социальные сети и местные СМИ. Также велась работа с зарубежными диаспорами. В итоге наши соотечественники, находящиеся в других странах, сделали свой выбор, отдав голоса тем претендентам, которых считают достойными.

Раньше в список избирателей, проживающих за границей, включались лишь граждане, состоящие в списке консульства. К примеру, в парламентских выборах 2014 года в список таких избирателей были включены лишь 13,3 тысячи человек. Это означает, что миллионы соотечественников не участвовали в важнейшем политическом процессе.

В 2019-м 112 411 узбекистанцев, временно или постоянно проживающих за границей, проголосовали на 55 избирательных участках в 38 странах.

Это стало возможно благодаря утвержденному в 2019 году Центризбиркомом Положению о порядке образования избирательных участков при дипломатических представительствах и консульских учреждениях Узбекистана в иностранных государствах.

С учетом накопленного отечественного и зарубежного опыта, рекомендаций международных экспертов и наблюдателей внесены соответствующие изменения в Избирательный кодекс Республики Узбекистан. Некоторые из них касаются порядка включения наших граждан в список избирателей за рубежом.

Согласно внесенным изменениям списки избирателей на избирательных участках, образованных при дипломатических и иных представительствах Республики Узбекистан в иностранных государствах, составляются на основе данных, представленных главами указанных учреждений. Например, на парламентских выборах 2019 года количество избирателей, внесенных в списки на избирательных участках за рубежом, составило 1 697 647 человек.

Кроме того, на участковые избирательные комиссии, образованные при дипломатических и иных представительствах Республики Узбекистан в иностранных государствах, возложена обязанность по информированию граждан, находящихся за границей, о способе, месте и времени ознакомления со списками избирателей. Нашим соотечественникам обеспечивается возможность ознакомления с касающимися их данными из списка избирателей также через официальные веб-сайты Министерства иностранных дел, дипломатических и иных представительств Республики Узбекистан в иностранных государствах.

Узбекистанцы могут в письменной форме обратиться непосредственно в участковые избирательные комиссии, образованные при дипломатических и иных представительствах нашей республики за рубежом, или же в электронной форме через официальный веб-сайт МИД о включении их в список избирателей за 15 дней до выборов. После этого происходит проверка персональных данных, указанных в обращении, и решается вопрос о включении гражданина в список избирателей.

Для обеспечения необходимым количеством бюллетеней и другими материалами участковые избирательные комиссии, образованные при дипломатических и иных представительствах Республики Узбекистан в иностранных государствах, представляют в Министерство иностранных дел сведения о гражданах, то есть общее количество включенных в список избирателей.

Голосование на избирательных участках за рубежом проводится в день выборов с 8.00 до 20.00 по местному времени в месте расположения данных избирательных участков.

**Записала Ольга ЛИДИНА**



> “Baxshilar nafaqat xalq o‘tmishining aks sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir”.
>
> Shavkat MIRZIYOYEV

# HURLIMANNING dutorini qo‘lga olib...

***Har bir murg‘ak bolani o‘z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko‘z nuri, qalb qo‘ri, iste’dodi va butun borlig‘ini baxsh etadigan o‘qituvchi va murabbiylar haqiqatdan ham fidoyi kasb egalaridir.***

Ushbu g‘oyat sharafli kasbni qadrlab, davlatimiz va jamiyatimizning rivoji, komil inson tarbiyasi uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etayotgan ustozlardan biri O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali dotsenti, Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi Gulbahor Aximbetovadir.

Yoshligidan san’atga muhabbati baland Gulbahor baxshichilik bilan birga, Qoraqalpog‘iston televideniyesida bolalar uchun beriladigan “Sening bo‘sh vaqting”, “Kim uddaburon, kim chaqqon” kursatuvlarini olib borib, xalqimiz ko‘nglidan joy oldi. Buvijonining qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarini shinqobiz bilan aytishi, otasi Qanat og‘aning gitara chalib qo‘shiq kuylashi yosh qizchaning san’atga mehirini yanada oshiradi.

Teatr san’ati — yoshlarni ma’naviy yetuk, komil inson sifatida tarbiyalashda katta ta’sirga ega. Gulbahor 3-sinf paytida “Ko‘yni o‘ylab top” tanlovida g‘olib bo‘lib, ikki yillik teatr tomoshalari uchun bepul chipta yutib oladi. Bu uning uchun san’atning keng olamiga chipta edi, go‘yo.

Onasi Gulperi opa qizining san’atga qiziqishini anglab, Nukusdagi bolalar musiqa va san’at maktabiga olib boradi. O‘zini har ishda dadil tutadigan, ko‘zida o‘ziga ishonchi porlab turgan Gulbahorga Sapargul Bashirova ustozlik qiladi. Gulbahor o‘qish bilan birga jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdi.

2000-yili “Qoraqalpog‘iston yosh iste’dod irg‘oqlari”, 2001-yili Andijon viloyatida bo‘lib o‘tgan Muhiddin qori Yoqubov nomidagi bolalar musiqa tanlovida besh yuz nafar o‘quvchi orasida baxshichilik ijrosi bo‘yicha 1-o‘rinni egallaydi. 2005-yili “Boysun bahori” xalqaro folklor festivalida, “Aqchako‘l ilhomlari” respublika tanlovlarida 2-o‘rin sohibi bo‘ladi...

Bunday misollarni ko‘p keltirish mumkin. 2003-yilda Nukus madaniyat va san’at kollejining milliy musiqa bo‘limida O‘zbekiston xalq baxshisi G‘ayrat og‘a O‘temuratovdan milliy dutorning ajib sirlarini o‘rgandi. 2005-yili — 17 yoshida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil oladi.

Uning mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, 2015-yilda “Do‘stlik” ordeni, 2016-yilda Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi unvoni, 2017-yilda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Yosh bo‘lishiga qaramay Berdaqning qizi Hurlimanning dutorini qo‘lga olib, jahon sahnasida xalq kuylari va qo‘shiqlarini ijro etdi, iste’dodli baxshi sifatida xalq orasida ehtiromga ega bo‘ldi.

Bugun Gulbahor Aximbetova oila deb atalmish muqaddas koshonaning suyukli bekasi, baxtli ona, sadoqotli yor, namunali kelin. Turmish ortog‘i — qonliko‘llik polvon, Turon kurashi buyicha Osiyo chempioni Abdug‘aniy Abdirashidov bilan qurgan oilasi ko‘pchilikka namuna. Ular uch nafar farzandning sevimli ota-onasi.

— Prezidentimiz Nukus shahriga tashrifi chog‘ida «Baxshichilik – qoraqalpoq elining ulug‘ an’anasi, uni rivojlantirish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz», deya ta’kidlagan edi. Biz, baxshilarning quvonchimiz cheksiz. Prezidentimizga, xalqimizga xizmat qilishga doimo tayyormiz, — deydi Gulbahor Aximbetova.

**Asilbek QOLQANATOV,**
**O‘zDSMI Nukus filiali talabasi**


# Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti jamoasi




*Butun O‘zbekiston xotin-qizlarini, shu jumladan, o‘qituvchi va murabbiy ayollarimizni 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qutlaydi. Sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy farovonlik, yosh avlodga bilim berishdek sharafli ishda ulkan muvaffaqiyatlar tilab qoladi.*

8



R

ДОЧЕРИ ЗУЛЬФИИ



*Первое марта ассоциируется у каждого узбекистанца с днем рождения народного поэта. Это она, сказавшая всему миру «слово, сияющее, как душа человека труда», приходит к нам с весной. Это у нее такое сердце, как будто в нем «бьются все сердца людские». Это ее достижения приумножают славные дочери – лауреаты Государственной премии имени Зульфии.*

# Девушка из махалли «Маънавият»

*Звучное название словно предопределило судьбу юной жительницы Гулистана. С детства ее воображение увлекли книги. В подростковом возрасте открытием стало творчество Зульфии и на столе появился заветный томик, отвечающий на самые разные вопросы. Представляя себя на месте героинь стихов, задумывалась о любви к Родине, вкладе каждого в общее дело, созидательном труде, дарящем радость...*

Когда у Шахнозы Саматовой, лауреата престижной премии для девушек, спрашивают, почему выбрала факультет дефектологии, в частности олигофренопедагогику, она отвечает словами любимой поэтессы: «Ему моя отзывчивость нужна!» Ему, то есть ребенку.

Третьекурсница Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами с болью говорит о детях с ментальными нарушениями, нуждающихся в особом внимании. Шахноза представляет, как создаст уникальную методику, помогающую корректировать поведение мальчишек и девчонок с олигофренией, облегчит жизнь их матерям.

– Хочу помогать по возможности социализироваться именно таким детям, – говорит будущий олигофренопедагог. – Они нуждаются в отзывчивости общества – сверстников и взрослых. В специальной литературе описываются случаи, когда правильно подобранные программы и кропотливая работа родителей, воспитателей творят чудеса. Ребенок выравнивается на глазах. Главное – не упустить время, не махнуть рукой на того, кому вовремя оказанная помощь способна кардинально изменить жизнь.

Думаю, к решению выбрать эту специальность подтолкнули наблюдения за мамой. Она у нас врач такого уровня ответственности, что ей хочется соответствовать во всем. Оказывая помощь «солнечным» детям, являла образец терпения, понимания, участливости. Профессия дефектолога сродни профессии врача: нужны обширные медицинские знания, отточенная этика общения.

Дочь Зульфии (2020) руководствуется девизом: «Двигайся вперед всегда с хорошими намерениями. Если упал, вставай! Встал – беги!» Следует ему неукоснительно. Как иначе объяснишь победы этой нежной девушки на турнирах по таэквондо ITF?! А то, что в 2017-м на республиканских соревнованиях по футболу среди школьников в составе команды дошла до финала?!

Важным фактором формирования личности наша героиня, умеющая ценить каждую минуту, считает мотивацию, способность задаваться большими и маленькими целями и стремиться к их достижению. Неудивительно, что в одной из курсовых работ она делится и своими рассуждениями по теме «Влияние мотивации на усвоение материала студентами высших образовательных учреждений». Побудительные причины называет определяющими и в работе с контингентом олигофренопедагога.

Приверженец здорового образа жизни, пропагандирует его в средствах массовой информации. Газеты «Саломатлик сандиги» и «Соглом авлод» явились для юного корреспондента своеобразной трибуной борьбы с вредными привычками, неправильной организацией режима дня, гиподинамией. Просто и доступно девушка советовала пересмотреть питание, грамотно чередовать труд и отдых, больше двигаться и любоваться красотой окружающего мира. Как не отозваться на призыв есть побольше репы и яблок, когда об их пользе рассказывают так вкусно! Отличное знание анатомии и спортивная закалка дали право корреспонденту Саматовой советовать, какие упражнения следует выполнять при отложении солей в шее и пояснице...

Но прежде всего здоровый образ жизни для Шахнозы – идти одним путем со своей суверенной страной. Продуктивно, вдохновенно. Да так, чтобы непременно помогать кому-то.

Анализ газетных публикаций позволяет сделать вывод: активной жительнице махалли «Маънавият» интересно все. И если рядом кипит жизнь молодежи, она должна рассказать о ней, чтобы «разбудить» жажду деятельности в тех, кто пока еще проявляет инертность. Инициативный автор пишет о конференциях, фестивалях, конкурсах, воспитании девушек, представляет свое видение поколения независимости, рассуждает о престижности профессий и целеустремленности. Участвует в семинарах-тренингах, слетах, ей довелось стать делегатом I Центрально-Азиатского фестиваля в Алматы. Запомнились посещение Сената с целью оценки происходящих в нем рабочих процессов и такой полезный курс в Институте изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров при Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан.

Портрет волевой, целеустремленной девушки будет неполным без ее любимого таэквондо.

Перспективная спортсменка, член национальной сборной Узбекистана, победитель ряда престижных республиканских и международных турниров, кандидат в мастера спорта, она уже успела попробовать себя в роли тренера.

Жизнь заместителя председателя Союза молодежи ТГПУ имени Низами соткана из множества запоминающихся мгновений. Каждое из них – отдельная история, урок по формированию гармонично развитой личности. Шахноза Саматова – герой очерков и интервью в ряде республиканских и местных изданий. Одна из публикаций называлась «Счастье Шахнозы».

О счастье, кстати, наша героиня тоже может говорить словами Зульфии. Так созвучно ее мировоззрению творчество великой Матери.

– Обладая недюжинным поэтическим даром, – говорит лауреат Государственной премии, – замечательный мастер слова не погружается в лирику полностью. Поездки по стране, решение проблем соотечественниц, всемирные форумы... День этой женщины, которая для каждой из нас была и будет образцом, состоял из немыслимого количества дел. Она успевала все! А для своих певучих строк выкраивала время ночью. За счет сна. Ее «Гори не угасая!» постоянно со мной, за что бы ни бралась. По Зульфие сверяю собственные поступки, иногда думаю, какую бы оценку она дала моим статьям. Ее «пламя» живет в нас, девушках XXI века, ее «любви и правды огненная сила» – наша мотивация. Рецепт счастья любимой поэтессы – в единстве с людьми-созидателями.



Мечтаю быть такой же разносторонней, эффективно трудиться, называть себя, как Зульфия, дочерью своего народа. Хочу сказать вместе с ней:

***Но, часть, я страстно жажду***
***с целым слиться,***
***И выше нет удела для меня.***

**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**

## Под снежным покрывалом

*Давно ли мы радовались, снимая на мобильники деревья в белой и розовой пене цветов? С гордостью отсылали друзьям в соцсетях: «В Узбекистане весна!» Казалось, даже фотографии источают аромат.*

*Последние дни февраля показали железный зимний характер. Снегом засыпало землю. Он безжалостно летел на нежные лепестки, облепляя нарядные ветви. Смотреть было больно...*

*Вспоминаю стихотворение Зульфии «Снова царит весна». В нем торжество тепла и нежности сменяется стужей:*

***На всех ветвях цветы завяли;***
***Деревья в саванах туманных.***



*Но апофеозом становится приход самого ласкового времени года: «И снова мир благоуханен».*

*...Грустно бродила по озябшему Ташкенту, искала то, что придаст новых сил. И нашла. Братик моей одноклассницы Искандар весело играл в снегу, предварительно покатав на санках друга. А под холодной белой шубой зеленела трава. Как привет от весны.*

**Тамилла АБДУРАХМАНОВА,**
**студентка ТашПМИ**

ДЕВУШКИ В ИКТ

# Я б в «айтишники» пошла, пусть меня научат...



***Компьютер, подключенный к интернету, и специальные знания – все, что нужно для успешной карьеры в IT-сфере. Стереотип, что это «чисто мужская» профессия, успешно развенчивают участницы международного проекта Technovation Girls.***




В республике в самом разгаре новый сезон крупнейшего международного технологического конкурса для девушек. Обучающая программа проводится в нашей стране с 2016 года. За это время более 1,2 тысячи молодых соотечественниц получили знания в области программирования, ведения бизнеса и саморазвития. Разработка мобильных приложений, проведение маркетинговых исследований, подготовка презентаций, видеороликов и выступлений, дизайн-мышление, лидерство – это лишь малая часть навыков, которые девушки приобретают под руководством опытных наставников.

Программа рассчитана на три месяца занятий – с февраля по апрель, охватывает весь Узбекистан. Возраст участниц – 10–18 лет. С учетом карантинных ограничений и для удобства команд из регионов большинство сессий проводится в онлайн-формате. Вебинары посвящены таким темам, как программирование приложений, социальное предпринимательство, карьера в IT, и многим другим.

– Каждая девичья «сборная» должна найти социально значимую проблему, которую можно решить с помощью технологий, и создать тематическое мобильное приложение, – поясняет координатор проекта Елена Селезнева. – Вопросы поднимаются важные и интересные: содействие молодежи в выборе профессии и трудоустройстве, борьба с буллингом в школах, переработка мусора, благотворительность, забота о здоровье и так далее. При этом четко прослеживается тенденция: девушки при разработке IT-продуктов рассматривают проблемы с разных, порой необычных сторон и предлагают нестандартные идеи, варианты. Многие участницы Technovation Girls в будущем хотят стать программистами, веб-разработчиками.

Финал конкурса запланирован на май. Авторы лучших программных продуктов получат призы, а в июне жюри определит участниц из Узбекистана, которые представят республику на международном этапе состязания. Возможно, удастся повторить успех 2018 года, когда наша сборная Generation Z вошла в десятку лучших в мире и презентовала свой проект в Калифорнии. Это приложение Elist, посвященное гендерному балансу в семьях и помогающее равномерно распределять нагрузку по домашним делам между мальчиками и девочками.

Technovation Girls реализуется ННО Tech4Impact в партнерстве с Ассоциацией поддержки детей и семей Узбекистана, Министерством инновационного развития, Центром передовых технологий, офисом ООН в Узбекистане. В 2021 году программа проводится в рамках совместного проекта ПРООН и Министерства по поддержке махалли и семьи «Расширение прав и возможностей женщин для участия в государственном управлении и повышения их активности в социально-экономической жизни».

**Алина ЯГОДКИНА**

СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ

# ОСТРЫЙ УМ АДЫ ЛАВЛЕЙС

**Более двухсот лет назад родилась удивительная женщина, создавшая образец первой в истории компьютерной программы**



10 декабря 1815 года в Лондоне, в семье поэта Джорджа Байрона и его жены Анны Изабеллы, на свет появилась девочка, которую назвали Августой Адой. Она была единственной законной дочерью великого мастера слова, однако отец видел ее всего раз. Через месяц после рождения крохи супруги развелись.

Мать увлекалась математикой, поэтому хотела развить аналитические способности и у дочери. Ада получила отличное образование, занимаясь с частными преподавателями, а потом самостоятельно. Ее наставницей была Мэри Сомервилль, которая стала для ученицы образцом для подражания. Именно она рассказала о профессоре Кэмбриджского университета Чарльзе Бэббидже. Когда Лавлейс исполнилось 17 лет и ее представили ко двору, девушка смогла лично познакомиться с ученым. Между ними завязалась дружба, основанная на профессиональном интересе.

Бэббидж к тому времени уже десять лет занимался созданием счетной машины, способной производить вычисления с точностью до двадцатого знака. В основе ее работы лежали принципы, на которых действуют современные ПК. Поэтому некоторые называют творение Бэббиджа первым в мире компьютером.

Что же сделала для истории информатики леди Лавлейс? В 1842 году ее друга Чарльза пригласили провести семинар о своем изобретении в Туринском университете. Лекцию записали на французском, а чтобы перевести ее на английский, прибегли к помощи Ады. Девушка не только справилась с задачей, но и сопроводила текст комментариями, в одном из которых описала алгоритм вычисления чисел Бернулли на аналитической машине. Последнюю Лавлейс сравнила с жаккардовым станком, который ткет цветы и листья подобно тому, как разработка Бэббиджа создает алгебраические формулы.

Примечания Ады к той статье составили 52 страницы. Именно в них была скрыта стройная теория программирования! Английская леди ввела понятия «цикл», «рабочая ячейка», «распределяющая карта». Описала основные принципы алгоритмизации, между делом разработав от «а» до «я» программу, достойную курсового проекта сегодняшнего студента технического вуза. Кроме того, дочь Байрона предсказала возможные направления использования вычислительной техники: сочинение музыкальных произведений, конструирование сложных графических объектов и даже компьютерные игры. И это все в первой половине XIX века! Именно поэтому Аду Лавлейс считают первым в мире программистом.

Остается добавить, что Министерство обороны США в середине 70-х годов прошлого столетия утвердило название «Ада» как имя единого языка программирования для американских вооруженных сил. А день рождения этой удивительной женщины отмечается как Международный день программистов.

**Лилия РУСАНОВА**

# Новости IT

## Есть идея!

***В вузах Кашкадарьинской области стартовала программа инкубации для активной молодежи. Организатор – IT Park.***




Проект предназначен для энтузиастов, у которых есть идея, но нет бизнес-плана и четкого понимания того, как это можно реализовать. Цель – поддержка стартапов посредством обучения, рекомендаций экспертов и предпринимателей.

В течение полутора месяцев участники будут заниматься в инкубационных центрах при шести областных вузах. В завершение молодежь презентует готовые продукты инвесторам и сможет получить финансирование.

## Сделаем столицу лучше

***Ташкентский хокимият запустил сервис Xalq Nazorati («Народный контроль»), через который можно подать жалобу на коммунальное обслуживание, плохие дороги и другие проблемы.***




На сайте xalqnazoraty.uz принимаются заявки о недоработках в городской инфраструктуре, сферах жилищно-коммунального обслуживания и благоустройства, общественного транспорта, торговли и услуг. Пользователю необходимо зарегистрироваться, введя номер телефона и указав ПИНФЛ. Электронные обращения направляются напрямую общественному исполнителю.

Мобильные приложения сервиса доступны также на Android и iOS.

## Игрушки с секретом

***Южная Корея подарила детским садам Узбекистана 275 «умных» роботов для обучения воспитанников навыкам программирования.***



Роботы Albert и Genibot предназначены для мальчиков и девочек от шести лет. При помощи готовых карточек кодирования ребенок сможет заставить игрушку двигаться, мигать глазами и говорить. Дети постарше научатся создавать собственные команды и алгоритмы.

Новинки распределят в 53 детских садах по всему Узбекистану. В случае успешного завершения проекта Министерство дошкольного образования намерено обеспечить больше ДОО инновационными игрушками и дополнить их функционал программой для ребят с ограниченными возможностями.

## Учиться на «отлично»

***МНО открыло интернет-портал идей и предложений по развитию школьного образования.***



На сайте idea.uzedu.uz можно оставить заявки по разным категориям: улучшению качества обучения, повышению статуса и квалификации педагогов, вопросам государственно-частного партнерства, внедрению инноваций и технологий, совершенствованию инфраструктуры школ, инклюзивному образование и так далее.

Для отправки обращения нужно заполнить электронную форму. Сотрудники министерства рассмотрят ее и свяжутся с отправителем. Если идея покажется перспективной, ее автора пригласят на встречу.

Согласно статистике сайта, уже подано более 150 предложений.

КАДРЫ XXI ВЕКА

# ONE MILLION UZBEK CODERS: ПРОГРАММИРУЕМ БУДУЩЕЕ

**Уже больше года в Узбекистане действует уникальный проект «Один миллион программистов», который стал настоящим прорывом в сфере подготовки квалифицированных IT-кадров и повышения цифровой грамотности населения**



*«Будущее – за ИКТ и специалистами, владеющими ими» – такая мысль неоднократно звучала в выступлениях Президента. Именно активное внедрение IT может ускорить качественное реформирование экономики. Без этого невозможен прогресс и в других сферах. Недаром третья из пяти инициатив, выдвинутых Шавкатом Мирзиёевым, как раз и направлена на улучшение навыков владения компьютерными технологиями и интернетом. Речь в первую очередь идет о молодежи.*

*Как этого добиться быстро и эффективно? Ответ: с помощью мегапроекта «Один миллион программистов»!*

**НА РАБОТУ В GOOGLE**

One Million Uzbek Coders (OMUC) – программа, направленная на дистанционное бесплатное обучение актуальным IT-специальностям. Инициатива реализуется Министерством по развитию информационных технологий и коммуникаций в сотрудничестве с фондом Dubai Future Foundation (ОАЭ), IT-академией при IT Park, Университетом Инха в Ташкенте и специализированной школой по углубленному изучению предметов направления информационно-коммуникационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

«Сердце» проекта – онлайн-портал UzbekCoders.uz, где слушателям предлагаются бесплатные видеоуроки на узбекском языке (с субтитрами). Также действует международная образовательная платформа Udacity.com. Обучение охватывает четыре самые востребованные IT-специальности: аналитика данных, создание приложений для Android, разработка веб-приложений и программного обеспечения.

Одно из преимуществ участия в программе – то, что лучшие выпускники могут побороться за гранты Udacity Nanodegree. Это прекрасная возможность продолжить обучение на продвинутом уровне (опять-таки бесплатно). Курс длится три месяца, и при его успешном окончании выдается диплом Nanodegree. Документ признается при устройстве на работу в крупные IT-компании: Google, Autodesk, Cloudera, Salesforce и другие.

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕГАПРОЕКТ**

запущен в ноябре 2019-го. Предпосылкой для этого послужил официальный визит Президента Республики Узбекистан в ОАЭ в марте того же года. В ходе переговоров были достигнуты соглашения о сотрудничестве в ряде сфер, в том числе в IT-отрасли. В Объединенных Арабских Эмиратах вот уже несколько лет успешно действует инициатива One Million Arab Coders. Специалисты разработали план по адаптации программы к условиям нашей страны. На локальном уровне она стартовала под брендом One Million Uzbek Coders.

Первый год оказался весьма плодотворным. Охвачено более 120 тысяч слушателей, из них 18 тысяч успешно окончили учебу. Проведено четыре отборочных тура, по итогам которых определены обладатели грантов Udacity Nanodegree. В ближайшие два года еще 300 тысяч молодых людей на бесплатной основе обучатся азам компьютерного программирования.

> Первый год оказался весьма плодотворным. Охвачено более 120 тысяч слушателей, из них 18 тысяч успешно окончили учебу. Проведено четыре отборочных тура, по итогам которых определены обладатели грантов Udacity Nanodegree. В ближайшие два года еще 300 тысяч молодых людей на бесплатной основе обучаться азам компьютерного программирования.

Принято решение об интеграции One Million Uzbek Coders в школьную программу. В 2020/2021 учебном году планируется охватить свыше 47 тысяч ребят по всей стране. Ведется работа по усовершенствованию предмета «Информатика», в который войдут некоторые дисциплины из OMUC.

Чтобы еще больше заинтересовать молодежь, образовательная платформа включена в перечень бесплатных услуг портала ZiyoNET, оператора мобильной связи Uzmobile и интернет-провайдера Uzonline.

**КЛЮЧ К УСПЕХУ**

«О проекте мы услышали в выпуске новостей и сразу заинтересовались, – рассказывает 39-летний Жасур Холов из Паркентского района Ташкентской области. – Сперва обучение начал я, а потом идея пришлась по душе жене и нашим четырем детям. В итоге курсы окончили все вместе».

Семья Холовых – яркий пример того, как программа объединяет поколения и полезна всем независимо от возраста. Старшая дочь Хилола учится в Ташкентском государственном техническом университете по направлению «Информационные технологии» и мечтает создавать инновационные архитектурно-строительные проекты. Девятиклассник Бахром хочет стать профессиональным разработчиком приложений и поступить в Массачусетский технологический институт. 13-летняя Барно в будущем видит себя руководителем частной IT-школы и преподавателем предмета «Анализ данных». А 10-летняя Зумрад увлекается конструированием одежды и проявляет интерес к веб-дизайну. Вот такие разные мечты и планы, но младшее поколение семьи Холовых понимает: ключ к успеху – в компьютерной грамотности.

«Возможно, наш пример вдохновит других, – улыбается мама Гулноза. – Тем более что пройти курсы может абсолютно любой человек, даже с минимальными знаниями в сфере IT. Если говорить о детях, то здесь главное – не заставлять и не принуждать. Ребенок сам должен захотеть учиться. Знания, которые он получит, станут фундаментом для успешного будущего и самореализации».

**ОТ ЧЕТЫРЕХ ЛЕТ И СТАРШЕ**

One Million Uzbek Coders постоянно развивается. В декабре 2020 года, на праздновании годовщины проекта, заместитель директора Dubai Future Foundation Абдулазиз аль-Джазири объявил о расширении возрастного охвата участников. Сделано это с помощью локализации курсов глобальной платформы Code.org, обучающей детей основам программирования. Теперь ребята от 4 до 18 лет могут осваивать профессии будущего, получая всю необходимую информацию на узбекском языке. Делать это можно как самостоятельно, так и в классе с учителем. Благодаря разнообразным курсам и видеоурокам, размещенным на сайте, у мальчишек и девчонок разовьется логическое и креативное мышление, умение решать проблемы и работать в команде.

Code.org – некоммерческая программа, направленная на расширение доступа к информатике в школах. Ежегодно проходит международная кампания Hour of Code, в которой приняли участие уже более миллиарда ребят со всего мира. Обучение проходит в игровом формате и знакомит со всеми основными понятиями языков программирования.

**Елена КАЛИНИНА**

**При поддержке Министерства по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан**



Семья Холовых – активные участники проекта «Один миллион программистов».



# AYYOMINGIZ QUTLUG‘ BO‘LSIN, AZIZ AYOLLAR!

Shu kunlarda yurtimizda bahor ayyomi — 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami shukuhi kezib yuribdi. Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha xotin-qizlarni, shu jumladan, o‘qituvchi va murabbiylarimizni ushbu sana bilan chin qalbdan muborakbod etamiz!

Sizlarga uzoq umr, sixat-salomatlik, baxt-saodat tilaymiz. Oilangizga tinchlik-xotirjamlik, ishlaringizda yangi muvaffaqiyatlar hamisha yor bo‘lsin.

## Navoiy davlat konchilik instituti jamoasi

®

# JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI JAMOASI

*Barcha opa-singillarimizni yaqinlashib kelayotgan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qizg'in tabriklaydi. Ona yurtimiz ravnaqi yo'lidagi fidokorona mehnatlaringizda muvaffaqiyatlar tilaydi!*




*Siz, aziz ayollarimizning mehr-muhabbatingiz tufayli bu olam yanada charog'ondir!*





®

# AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI JAMOASI







*Mamlakatimiz xotin-qizlarini, shu jumladan, barcha o'qituvchi va pedagog ayollarimizni 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qutlaydi! Siz, muhtaram ayollarimizga yosh avlod ta'lim-tarbiyasidek mashaqqatli va sharafli ishda ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz. Yuzingizdan hech qachon tabassum arimasin! Oilalarimiz tinch va farovon bo'lsin.*



®

Tirikchiligim shundan. Biroq baribir, dadamning yukini yengil qila olmayotganimdan asablarim qaqshaydi. Uyga o'zimcha charchab qaytaman. Ammo dadamning ko'zlaridagi asl horg'inlikni ko'rib, charchog'imga tupuraman. Dadillig-u g'ayrat otining soxta chavandoziga bir dumalab do'naman-u jag'imga erk beraman: "...bugun falon idora kattasi bilan gaplashdim, dada, ahvol nimaga bunday, deb so'radim!"... Vaholanki, o'sha "kattakon"ga bunday savollarni ming bittasi berib ko'rgan va uyam yodaki bo'p ketgan ming bitta javobidan birovini aytgan-qo'ygan bo'ladi. Balki shu alfoz o'zimni dadam oldida... yo'q, dadam timsolidagi vijdonim oldida oqlashga urinarman. Mana, nimadir qilyapman, demoqchi bo'larman...



# Dadam, TIRIKCHILIK VA JURNALISTIKA

ESSE

Bu safar izg'irin sababchi bo'ldi.

Sovuq jondan o'tdi. "Ariston" o'rnatay desam, avval uning baki suvga to'lishi kerak, keyin u suvni gaz isitadi, ana undan keyin elektr toki isigan suvni butun xonalar bo'ylab aylantiraveradi. Qisqasi, bu mutaraqqiy matohning to'kis ishlashi uchun ham suv, ham gaz, ham elektr toki bab-baravar lang'illab turishi zarur ekan. Afsuski, bizning yurtda bu uch resurs — bir uydagi uch kundoshga o'xshab qolgan: birovi bo'lsa, ikkinchisi yo'q, ikkinchisi kelsa, uchinchisi...

Bozor yo'rg'aladim — elektropech ko'rgani. Do'konlar oldida ketayotib, ustma-ust taxlanib yotgan qalin, yeng-gu yoqasiz bichimdagi, qishki nimchalarga ko'zim tushdi. Shundoqqina yo'lak chetida yotardi. To'xtab, uzo-oq qarab qoldim. Dadam ham shunday qarab qolgandi...

Sultonoboddagi bozorda dadam, ayam va men rastalar oralab yurgandik o'shanda. Ro'zg'orga kerakli ul-bulni olib bo'lgach, dadam men bilan ayamni sarupo kiyintirdi. O'ziga kelganda, "Bo'ldi, qaytamiz", dedi. Ilg'adimki, cho'ntagidagi pulning tagi ko'ringan. Ayam savolomuz qaradi: "Sizga-chi?!". Dadam ayamning nigohlaridagi norizolikni rizolikka do'ndirmoqchi bo'ldimi, haytovur, bir yoymachining yoyib tashlagan kiyim-kechaklari ustida oyoq ildi. Tax-batax yotgan qalin, o'sha paytlar endigina urf bo'layotgan nimchalarga ser soldi. Ko'zlari bilan bir muddat chamalagach, barmog'ini ular uzra nuqib so'radi:

— ...bularingiz nechchi pul, uv-v, mudir?

Sotarman narxni aytdi. Hozir esimda yo'q, ammo cho'tlaganidan ancha qimmat ekan chog'i, dadam ortiq savol bermadi. Faqat nimchalarga jimgina, uzo-oq qarab qoldi. So'ng daf'atan uyg'ongan kishidek boshini ko'tardi-yu "Ketdik!", dedi bizga. Ayamning alqovlari naf bermadi. Bozordan qaytdik. Uydagi televizor esa, omon-omon, yaxshi zamon deya lof urardi har kuni. Holbuki, halol, vijdonli, qora mehnat odami uchun "yaxshi zamon"ning kelishi tobora xomxayolga aylanib borayotganini ko'rish uchun ko'chaga chiqish kifoya edi. Shungami, kanallarimizdagi darang-durung tomoshalardan ensasi qotgan dadam tezda pultni qo'liga olardi: "...O'zbekistonda har kun bayram, Xudoga shukr. Qani, boshqa joylardayam bayrammikan, bi-ir ko'raylik-chi!". Xorij kanallaridagi xabarlarga qo'yardi. O'rischani tushunmasam-da, qiziqib ko'rardim men ham. Taajjubki, xorij kanallaridagi odamlar yig'lardi, arzini aytardi, so'kinardi... Odamga o'xshab gapirardi, xullas. Dadam ko'pincha "ORT"ni ("Perviy kanal") berilib ko'rardi: "...o'-o', ana, Maskuvada bitta milisa o'g'irliq qip qo'lg'a tushipti... Besh yilga qamalipti"...

"9+3" ta'lim tizimi, ya'ni kollejlashtirish siyosati avj olgan yillar. Hamma yoqda kollej qurila ketdi. Bizning tumanda ham bir nechta joyda ustalar ish boshladi. Dadam ham el qatori qurilishga jo'nadi. Oylab ketdi, shu ketgancha. Nihoyati, kollej bitdi. Bitgandayam hashamdor, dang'illama kollej bo'ldi. Hovlisidagi kafellargacha astoydil qilingan mehnatdan darak berib turardi. Shunday. Dadam ishlaydigan ustalar guruhi xoh u davlat binosi bo'lsin, xoh odamlarning uyi, pishiq chiqadi. Ba'zi "usta"larga o'xshab bir kunlik ishni bir haftaga, bir haftalik ishni bir oyga, bir oylik ishni bir yilga cho'zib yotishmaydi. Kollejni ham o'z vaqtida va mustahkam qurishdi. Ammo... "peshana teri" — ish haqini olisholmadi. Dadamning bir oyog'i ish boshqaruvchinikida ("prorab") qop ketdi. Ish boshqaruvchilari, narigi ko'chada yashovchi Boy aka, axiyri, bir ko'rpa qilib, yotib oldi. Haqini so'rab borganlarga Boy akaning xotini chiqib: "...kasal bo'p qoldi. O'zini osmoqchi... Tepasida "hay-hay"lab o'tirippiz...", deydigan bo'ldi. Shu-shu ustalar undan umidini uzib, Toshkentga borishdi. Yo'lgir bir yuristni topishdi. Sudlashamiz, deyishdi. Yuristning nafsi yuho chiqib, oladigan pullaringning yarmichasini menga oldindan berasizlar, deb hali ko'rsatmagan "karomat"iga narx bichibdi. Ustalar ikkilanishibdi. Agar sudda yutib chiqmasak-chi, deb so'rashsa, yurist yelka qisibdi. Alqissa, hech vaqosiz qaytishdi. Har bitta ustaga, shartnomaga muvofiq, berilishi shart bo'lgan olti yuz ming so'mdan pul qaysidir haromxo'rlarning yug'on ichagidan o'tdi-ketdi. Telekanallarimiz esa hanuz qarsak chalardi.

Hozir o'sha kollej quruq savlat bo'p turibdi. Ishchilari deyarli oylik maosh olmasa ham, ishdan ayrilib qolmaslik-chun borib kelishadi. Ma'muriyati esa sobiq talabalarining yo'qolgan diplomlari bahona "soqqa qilish" bilan, xodimlarining yo'q hisobidagi moyanalarini yanada "yo'qqa chiqarish" bilan... qisqasi, shu-sizam mamlakatda tarvaqaylab ketgan korrupsiyaning tagiga "madaniy o'g'it" bo'lish bilan band. Bo'm-bo'sh yotgan xonalari ko'pligidan hokimiyat turli boshpanasiz tashkilotlarni shu yoqqa yuboraveradi. Hozir, masalan, Ekologiya partiyasining tuman tashkiloti o'sha yoqdan qo'nim topgan...

Dadam esa hamon qora mehnatda... Boy akami?.. Yo'q, o'zini osmadi, negadir. Ora-chora ko'rib qolaman. Qaribdi. Oxirgi marta ko'rganimda bir hamsoyamiz ila araqning qandayidan, qachon ichib turilsa, "foydali" bo'lishi borasida qizg'in bahslashayotgandi. Xudoning urgani shudir-da!..

Yana bir kunlar keldi. Odamlar gurra-gurra Rossiyaga, Qozog'istonga ketishga tushdi. Hozir ham ketishyapti. Nachora, tirikchilikning toshtegirmoni o'lsakkina boshimizda aylanmaydi. Dadam Qozog'istonga ketgandi. O'sha yoqlarda qozoqqa uy qurib, vatan qurib, tekshir-tekshirdan qochib... qishning chillasida "quv-quv" yo'talni orttirib qaytdi. Topgan tanga-chaqasini ukol-doriga sarfladik. Kanallarimizda o'sha-o'sha, davomli qarsaklar guldurardi.

Boz bir zamona qo'pdi. Odamlar qo'shimcha tomorqalardan, uzumzor-u olmazorlardan kun ko'rishga o'tdi. Bahonada bog'dorchilik, ziroat, chorvaning ko'kayiga kun tegdi. Yem-xashak, o'tin tashvishidan qutulishdi. Davlatga soliq ham to'lardi, sarvatga foyda ham ko'rardi. Ola ichingdan chiqsa, yomon bo'larkan. Tuppa-tuzuk olmazori bor bitta Kalboshning ishtahasi palak yozib, butun-butun uzumzorlar barq urayotgan yerga "ishqi tushdi". Fermer bo'lish da'vosida xat-hujjat to'plab, u yoqqa chopdi-bu yoqqa chopdi, o'sha yerlarga ega chiqdi. Uzumzorlarni buzdirishdan boshladi, birinchi "faoliyat"ini. Kamida o'n besh gektarlik toklarni qo'portirib, boshiday taqir bir maydonga aylangan yerga yoppa paxta ekdi. Hosili unmadi. Kelasi yili yana chigit qadadi. Yana unmadi... Hali-hali shu paykaldan yolchitib bir martayam hosil olgani yo'q. Olmazoridan ham ayrildi. Uzumzorlar "juvonmarg" ketgach, olma bog'lari ham paxta dalasiga qo'shib yuborilgandi. Hozir o'sha Kalbosh na fermer, na bog'bon. Uyining oldidagi xarrakdan ketini uzmay o'tiradi kun bo'yi. O'tgan-qaytganga, salom ham yo'q, alik ham, alamzada qaraydi. Juda zeriksa, o'ziga o'xshagan uch-to'rt bekorchi-yu befayzni yig'ib, gap sotadi. Essiz umr!..

Va essiz bog'lar, deydi endilargacha hamma. Ha, o'sha uvol ketgan uzumzorlar ichida bizniki ham bor edi. Ellik sotixga yastangan, uch yilgina burun ekilgan, o'n xil navdagi uzumlar... Yigirma yildirki, o'tin deb boshini qotirmagan ko'pchil orasida dadam ham, mana, keksarayotgan chog'ida daladagi qolgan-qutgan g'o'zapoyani uyga tashiydi, har tiyramoh. Iloj qancha, tirikchilik... Dadamning o'z ta'bircha aytsak, bitta kal boshlagan ishni ikkinchi kal buzarkan doim... Muxbirlarimizmi? Sayrashdi, sayrashyapti va sayrayajak: "...ur-raaa!".

O'zim ham shu sayroqi "to'tiqush"lar safidaman. Dadam ayozli havoda g'o'za yulib, tappi terib yurgan, ayam onasidan qolgan karavotda qalin kiyimlariga o'ranganchа tinimsiz yutalayotgan, jigarim pechkaning kulini titib, ko'zi achishayotgan, ayolim muz qoplagan derazalarga xavotir-la qarab, ohista beshik tebratayotgan bir pallada, men, supraday-supraday sahifalarni to'ldirib yolg'on yozaman, deputatlar-u turfa tashkilotning rasmiy yugurdaklaridan kelgan uyum-uyum yolg'onlarga sayqal beraman: "...sharoitlar yanada yaxshilanmoqda", "...qishki mavsumga tayyormiz", "...xalqning ichida yurib, ularni rozi qilish asosiy vazifamiz"...

Tirikchiligim shundan. Biroq baribir, dadamning yukini yengil qila olmayotganimdan asablarim qaqshaydi. Uyga o'zimcha charchab qaytaman. Ammo dadamning ko'zlaridagi asl horg'inlikni ko'rib, charchog'imga tupuraman. Dadillig-u g'ayrat otining soxta chavandoziga bir dumalab do'naman-u jag'imga erk beraman: "...bugun falon idora kattasi bilan gaplashdim, dada, ahvol nimaga bunday, deb so'radim!". Shu ikki pullik ishchamni bevosita ming qahramonlik ko'rsatgandek gapirib beraman. Ular ham menga qahramonga qaragandek qarab, tinglashadi. Vaholanki, o'sha "kattakon"ga bunday savollarni ming bittasi berib ko'rgan va uyam yodaki bo'p ketgan ming bitta javobidan birovini aytgan-qo'ygan bo'ladi. Balki shu alfoz o'zimni dadam oldida... yo'q, dadam timsolidagi vijdonim oldida oqlashga urinarman. Mana, nimadir qilyapman, demoqchi bo'larman... Bilmadim...

Dadam bugun ham televizorni kam ko'radi. Ko'rganiyam koreys-u turklarning tarixiy seriallari. "Dunyo bo'ylab" kanalini ko'radi yana. Ikki oyoqli maxluqlarning oldi-qochdisidan ko'ra haqiqiy jonivorlarning yashash uchun kurashini ko'rishni ma'qulroq biladi. Xabarlardan faqat "Zamon"ni ("Zamon" informatsion dasturi) hamda "gapchi bachalar"ni ("Markaziy studiya") ko'rib turadi. Ne tongki, shular kabi dasturlarni kuzatib bildikki, nainki Moskvada, balki O'zbekistonda ham "milisa"lar o'g'irlik qilarkan, pora olarkan, birovning xotinini yo'ldan urarkan... Moskvadan farqimiz — bizda ular qamalmas ekan. Nari borsa, ishidan bo'sharkan. Beri kelsa, pushaymonning "p"siyam sezilmaydigan ohangda bitta kechirim so'rab, qutulib ketaverarkan.

Mana, dadam oltmish beshinchi qishini qarshi oldi, O'ziga shukr. Nima deyishgayam hayronman. Shu choqqacha, qozonda birga qirq kun qaynasayam, qonim qo'shilmaydiganlarni qutlab keldim. So'zlarning saralarini atadim. Chin yaqinlarga kelganda tilning aylanishi dushvor kechadi. Ayniqsa, dadamga. Yaxshi, urinib ko'raman: Dada, tabriklayman! Umringiz "Baqara" surasiday uzun bo'lsin!..

**Sherbek BOBONOR o'g'li**





TAASSUF

## XO'ROZIGA NASHA BERMOQCHI BO'LGAN TOSHQUL

***Toshqul Bilmasov (familiya va ism o'zgartirilgan) xo'rozlariga tekin don bermoqchi edi. Ammo u bu harakat bilan jinoyatchi bo'lib qolishini bilmagandi. Ha, endigina yigirma bahorni qarshi olgan Toshqul bilib-bilmay jinoyatchiga aylanib qoldi.***



Gap shundaki, Toshkent viloyatining Ohangaron shahrida yashovchi fuqaro Toshqul Bilmasov 2020-yil 15-dekabr kuni Piskent tumanidagi Telman qishlog'iga boradi. Maqsadi daladagi qarovsiz o'simliklar donini terib olib xo'roziga berish edi. U negadir bu o'simliklarning doniga qo'shib barglarini ham terib oladi va ikki dona polietilen paketga joylaydi. Shundan so'ng u Ohangaron shahridagi uyiga jo'naydi. Ohangaron temir yo'l bekati piyodalar o'tish yo'lagidan o'tayotganida bekat XTB xodimlari tomonidan tekishirilganda Toshqul olib ketayotgan don va barglar nasha giyohvandlik o'simligi degan gumon paydo bo'ladi.

Darhaqiqat, Toshkent shahar IIBB EKBning 2020-yil 16-dekabrdagi XXX sonli ekspertiza xulosasiga ko'ra, fuqaro Toshqul Bilmasovdan olingan o'simlik moddalar tarkibida faol giyohvand modda, tetragidrokannabinol mavjud ekani aniqlandi.

Shunday qilib Toshqul xo'rozi uchun 1100 gramm marixuanani olib ketayotgan ekan. Ammo bexabarlik uni javobgarlikdan ozod qilmaydi. Shu bois, 2020-yil 16-dekabr kuni Transportda XTBB TB Jinoyatlarni tergov qilish bo'limi tomonidan Toshqulga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borildi va so'nggi hukmni o'qish uchun hujjatlar odil sudga yuborildi.

**Otabek MASHRAPOV,**
**Transportda XTBB Tergov boshqarmasi jinoyatlarni tergov qilish bo'limi tergovchisi, kapitan**

## Yoshlar murojaati BOTI OCHILDI

**Hurmatli yoshlar!**

"Yoshlar ovozi"-"Молодежь Узбекистана" gazetasi Sizlarni qiynayotgan muammolarni o'rganish hamda ularga yechim topishda yaqindan yordam berish maqsadida @yoshlar_ovoziga_murojaat_bot telegram manzilini ishga tushirdi.

Siz ta'lim olish, bandlik, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, uy-joy xarid qilish, oila qurish hamda boshqa holatlarda muammo va noqonuniy to'siqlarga duch kelsangiz, bu haqda bizga murojaat eting. Tahririyat o'z vakolatlari doirasida bu muammolarni keng yoritish, tegishli tashkilot va idoralarga ochiq xat yo'llash yoki masalalar yechimi yuzasidan huquqiy maslahatlar berishda Sizga yaqindan ko'maklashadi.

**UNUTMANG!** *Odatda yoshlar o'zining ulkan rejalarini boshlash arafasida ko'pincha mayda to'siq va muammolarga duch keladi. Bu tabiiy jarayon bo'lib, kurashuvchanlik bilan ushbu muammolarni yengib o'ta olganlar yangi-yangi ufqlarni zabt etaveradi.*

***Tahririyat***

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB – Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Jamshid MUSURMONOV
DIZAYNER Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-355
Adadi – 797
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.02
1 2 3 4 5 6